

HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH HAMDA MAHALLIY BOSHQARUV BILAN QIYOSIY TAHLIL QILISHDA BIOSISTEMALI YONDASHUVDAN FOYDALANISH

Bekchanov Davron Masharipovich

O‘zbekiston Respublikasi huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dotsenti, PhD.

ORCID:0000-0002-1969-3674

E-mail: davronmb@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada hujayraning ichki tuzilishi, harakati va evolyutsion rivojlanish qonuniyatlari hududlarni iqtisodiy rivojlantirish hamda mahalliy boshqaruv mexanizmlari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda hujayra ochiq, differensiallashgan va muvofiqlashgan tizim sifatida talqin qilinib, uning tarkibiy qismlari mahalliy boshqaruvning strategik, iqtisodiy, ma’muriy va nazorat funksiyalari bilan bog‘lab ko‘rsatilgan. Maqolaning maqsadi biologik tizimlardagi harakat va evolyutsiya tamoyillari orqali hududiy rivojlanishni boshqarishning yangi konseptual modelini asoslashdan iborat. Adabiyotlar sharhi, qiyosiy-tahliliy va institutsional yondashuvlar orqali hujayradagi yadro, membrana, mitoxondriya, sitoskelet va boshqa elementlarning funksional analoglari mahalliy kengash, hokimlik, biznes, mahalla va nazorat institutlari bilan taqqoslangan. Ilmiy yangilik sifatida mahalliy boshqaruvning “hujayraviy modeli” taklif qilinib, u hududiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish va mahalliy hokimiyat samaradorligini baholash uchun nazariy asos sifatida ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari hududiy siyosat, institutsional islohotlar va samaradorlik indikatorlarini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: hujayra, evolyutsiya, ko‘phujayralilik, mahalliy boshqaruv, hududiy iqtisodiy rivojlanish, institutlar, ko‘p darajali boshqaruv, biosistemali yondashuv.

Аннотация

В статье проведён сравнительный анализ внутреннего строения, движения и эволюции клетки с механизмами местного управления и процессами экономического развития территорий. Клетка рассматривается как открытая, дифференцированная и координированная система, а функции её основных органелл соотносятся со стратегическими, экономическими, административными и контрольными функциями местного управления. Цель исследования состоит в обосновании новой концептуальной модели управления территориальным развитием на основе принципов движения и эволюции биологических систем. Посредством обзора литературы, сравнительно-аналитического и институционального подходов показаны функциональные аналоги ядра, мембраны, митохондрий, цитоскелета и других элементов клетки в деятельности местных кенгашей, хокимиятов, бизнеса, махалли и контрольных институтов. Научная новизна статьи заключается в предложении “клеточной модели” местного управления, которая может служить теоретической основой для систематизации показателей территориального развития и оценки

эффективности местных органов власти. Полученные результаты могут быть использованы при совершенствовании территориальной политики, институциональных реформ и системы индикаторов эффективности.

Ключевые слова: клетка, эволюция, многоклеточность, местное управление, территориальное экономическое развитие, институты, многоуровневое управление, биосистемный подход.

Abstract

This article provides a comparative analysis of cell structure, movement, and evolutionary development in relation to local governance mechanisms and territorial economic development. The cell is interpreted as an open, differentiated, and coordinated system, and the functions of its main organelles are linked to the strategic, economic, administrative, and control functions of local governance. The aim of the study is to substantiate a new conceptual model of territorial development management through the principles of movement and evolution in biological systems. Based on a literature review and comparative, systemic, and institutional approaches, the functional analogies of the nucleus, membrane, mitochondria, cytoskeleton, and other cellular elements are compared with the activities of local councils, hokimiyats, business, mahalla institutions, and control bodies. The scientific novelty lies in the proposed “cellular model” of local governance, which can serve as a theoretical framework for systematizing territorial development indicators and assessing the effectiveness of local authorities. The results may be applied in improving territorial policy, institutional reforms, and performance measurement systems.

Keywords: cell, evolution, multicellularity, local governance, territorial economic development, institutions, multilevel governance, biosystem approach.

KIRISH

Zamonaviy fan taraqqiyoti turli sohalar oʻrtasida integratsiyalashgan yondashuvlarni keng qoʻllashni talab etmoqda. Biologik tizimlar va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar oʻrtasidagi oʻxshashliklarni aniqlash orqali murakkab jarayonlarni chuqurroq anglash imkoniyati kengaymoqda. Hujayra biologiyasi bu borada muhim nazariy asoslardan biri boʻlib, u tirik tizimlarning tuzilishi, funksional tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini tushuntiradi. Hujayra nafaqat biologik birlik, balki oʻzaro bogʻlangan elementlardan tashkil topgan, tashqi muhit bilan doimiy aloqada boʻlgan, ichki muvozanatni saqlovchi va moslashuvchanlikka ega boʻlgan murakkab ochiq tizim sifatida qaraladi.

Hududiy iqtisodiy tizimlar ham oʻz mohiyatiga koʻra koʻp komponentli va dinamik tuzilma hisoblanadi. Ular iqtisodiy faoliyat, ijtimoiy munosabatlar, institutsional mexanizmlar va boshqaruv qarorlarining oʻzaro uygʻunligi asosida rivojlanadi. Bunday tizimlarda mahalliy boshqaruv organlari muvofiqlashtiruvchi markaz sifatida faoliyat yuritib, resurslar taqsimoti, strategik rivojlanish va nazorat jarayonlarini amalga oshiradi. Shu sababli hududiy rivojlanishni samarali boshqarish uchun tizim ichidagi bogʻlanishlar, funksional taqsimot va axborot almashinuvi mexanizmlarini chuqur oʻrganish zarur.

An'anaviy iqtisodiy va boshqaruv yondashuvlari ko'pincha alohida ko'rsatkichlar yoki natijalarga e'tibor qaratadi. Biroq ular tizimning ichki tuzilmasi, elementlararo bog'liqlik va muvofiqlashuv jarayonlarini to'liq aks ettira olmaydi. Biosistemali yondashuv hududiy rivojlanishni yanada kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali resurslar harakati, funksiyalar taqsimoti, boshqaruv signallari va nazorat mexanizmlari yagona tizim sifatida ko'rib chiqiladi.

Mazkur tadqiqotda hujayraning tuzilishi, harakati va evolyutsion rivojlanish qonuniyatlari hududlarni iqtisodiy rivojlantirish hamda mahalliy boshqaruv mexanizmlari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning obykti sifatida hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlari va mahalliy boshqaruv tizimi tanlangan. Tadqiqot predmeti esa biologik tizimlarga xos bo'lgan funksional va evolyutsion qonuniyatlarning boshqaruv jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy maqsadi hujayra tizimi tamoyillariga asoslangan holda hududiy rivojlanishni boshqarishning konseptual modelini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun biologik va iqtisodiy adabiyotlar tahlil qilinadi, hujayra elementlari va boshqaruv institutlari o'rtasidagi funksional o'xshashliklar aniqlanadi hamda ularning amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

Mazkur yondashuv hududiy rivojlanish jarayonlarini yangi ilmiy asosda talqin qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish uchun nazariy hamda amaliy imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hujayra biologiyasi tirik tizimlarning ichki tuzilishi, funksional tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi asosiy fan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar hujayrani faqat morfologik birlik sifatida emas, balki murakkab, muvofiqlashgan va o'zini o'zi tartibga soluvchi tizim sifatida tushunish imkonini berdi. Zamonaviy hujayra biologiyasida organellalarning funksional ixtisoslashuvi, signal uzatish mexanizmlari, modda va energiya almashinuvi, genetik boshqaruv hamda hujayra ichki muvozanatini saqlash jarayonlari keng yoritilgan. Bu yondashuvlar biologik tizimlar samaradorligi tasodifiy emas, balki ichki tuzilmaning tartiblilik, funksional differensiallashuv va boshqaruvning aniqligi bilan belgilanishini ko'rsatadi [4].

G.M. Cooper va R.E. Hausman tadqiqotlarida eukariot hujayra murakkab, lekin aniq tashkil etilgan tizim sifatida talqin qilinadi. Mualliflar yadro, mitoxondriya, endoplazmatik to'r, Golji apparati, lizosoma, ribosoma va sitoskelet elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatib, hujayra faoliyatining barqarorligi turli organellalarning alohida emas, balki bir butun tizim sifatida ishlashi bilan ta'minlanishini asoslaydi [4]. Ushbu fikr tizimli boshqaruv nazariyasi uchun ham muhimdir, chunki har qanday murakkab tizimda samaradorlik alohida bo'g'inning kuchi bilan emas, balki ular o'rtasidagi muvofiqlik darajasi bilan belgilanadi.

Hujayraning kelib chiqishi va evolyutsion murakkablashuvi bo'yicha J.M. Archibald tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. U endosimbioz nazariyasini kengaytirib, eukariot hujayraning shakllanishi mustaqil yashagan ayrim organizmlarning o'zaro integratsiyasi natijasida yuzaga kelganini ko'rsatadi [5].

Mazkur yondashuv biologik rivojlanishda integratsiya va kooperatsiyaning muhim o‘rin tutishini namoyon etadi. Endosimbioz jarayoni oddiy elementlarning mexanik qo‘shilishidan iborat bo‘lmagan, balki yangi sifat bosqichini yuzaga keltirgan evolyutsion hodisa sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan u ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda ham turli institutlar, resurslar va boshqaruv tuzilmalari integratsiyasi natijasida sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichi vujudga kelishi mumkinligini tushuntirishga metodologik asos yaratadi.

Hujayra harakati, yo‘nalgan migratsiya va kollektiv faoliyat masalalari zamonaviy biologiyada alohida ilmiy yo‘nalishga aylangan. R. Mayor va S. Etienne-Manneville ishlari hujayralarning yakka holda emas, balki o‘zaro signal almashuvi, yetakchi va ergashuvchi funksiyalar, tashqi muhitga moslashuv hamda kollektiv koordinatsiya orqali harakatlanishini ko‘rsatadi [6]. Bu tadqiqotlar murakkab tizimlarda harakat samaradorligi markazlashtirilgan buyruq bilan emas, balki uzluksiz axborot almashuvi va ichki uyg‘unlashuv orqali shakllanishini asoslaydi. Mazkur yondashuv hududiy boshqaruv va mahalliy rivojlanish masalalariga tatbiq etilganda, alohida hududiy bo‘g‘inlar, boshqaruv institutlari va iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro koordinatsiya rivojlanish samaradorligini belgilovchi omil ekanini anglash imkonini beradi.

Ko‘phujayralilikning shakllanishi va differensiallashuv jarayonlari bo‘yicha T. Brunet va N. King olib borgan tadqiqotlarda tirik tizimlar murakkablashgan sari vazifalar taqsimoti kuchayishi, boshqaruv mexanizmlari aniqroq bo‘lishi va hujayralar o‘rtasidagi funksional ixtisoslashuv chuqurlashishi ko‘rsatiladi [7]. Mualliflar ko‘phujayrali organizmni oddiy hujayralar yig‘indisi emas, balki rollar taqsimoti va o‘zaro bog‘langan boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan yaxlit tizim sifatida tushuntiradilar. Bu g‘oya ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar uchun ham dolzarb bo‘lib, murakkab hududiy boshqaruv strukturalarida ham funksional ixtisoslashuv va vakolatlarning aniq taqsimlanishi samaradorlikni oshirishini ko‘rsatadi.

K.J. Niklas va S.A. Newman o‘z tadqiqotlarida biologik murakkablikni shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida struktura, aloqa va boshqaruvni ko‘rsatadi [8]. Ularning qarashlariga ko‘ra, murakkab tizimlarning muvaffaqiyatli faoliyati ularning tarkibiy elementlari soniga emas, balki ular o‘rtasidagi aloqalarning sifati, resurslar harakatining izchilligi va vazifalar muvofiqligiga bog‘liq. Bu nazariya hududiy rivojlanishni boshqarish uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki mahalliy iqtisodiy tizimlar ham ko‘plab subyektlar, resurslar va boshqaruv bo‘g‘inlari o‘rtasidagi uzviy aloqalar asosida faoliyat yuritadi.

L. Bich va hamkorlarining ko‘phujayrali tizimlar, ontogenez va o‘z-o‘zini tashkil etish bo‘yicha ishlari tizimning ichki murakkablashuvi va tashkiliy darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritadi [9]. Ularning ta’kidlashicha, murakkab tizimlar rivojlanishi uchun nafaqat resurslar, balki ichki boshqaruv, axborot oqimi va moslashuvchanlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu yondashuv ijtimoiy tizimlar tahlilida ham qo‘llanib, hududiy rivojlanish samaradorligi faqat moliyaviy yoki ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bilan emas, balki boshqaruvning ichki sifati bilan ham belgilanadi degan xulosani mustahkamlaydi.

Biologik tizimlardan tashqari, murakkab ochiq tizimlarni o'rganishda umumiy tizim nazariyasi muhim ilmiy asos hisoblanadi. L. fon Bertalanfi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariya turli fanlar uchun universal metodologik yondashuvni taklif etadi [10]. Unga ko'ra, har qanday tizimning mohiyati uning elementlarida emas, balki ular o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ochiq tizimlar tashqi muhit bilan doimiy aloqada bo'ladi, energiya va axborot almashadi, muvozanatni saqlaydi va o'zgaruvchan sharoitga moslashadi. Bu holat biologik hujayra bilan bir qatorda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni ham bir xil konseptual asosda tahlil qilish imkonini beradi.

Hududiy rivojlanish nazariyasida institutsional yondashuv muhim o'rin egallaydi. D.C. North institutlarni iqtisodiy rivojlanishni belgilovchi rasmiy va norasmiy qoidalar tizimi sifatida izohlaydi [11]. Uning fikricha, iqtisodiy faoliyat samaradorligi resurslarning mavjudligiga emas, balki ularni boshqaruvchi institutsional muhit sifatiga ko'proq bog'liq. Ushbu yondashuv hujayra biologiyasidagi genetik va signal boshqaruvi tizimlariga ma'lum darajada o'xshaydi. Chunki hujayrada genetik apparat va signal uzatish tizimi qaysi jarayon qachon va qanday amalga oshirishini belgilasa, hududiy iqtisodiy tizimda institutlar ham resurslar taqsimoti, iqtisodiy faollik va rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi.

Elinor Ostromning ko'p markazli boshqaruv bo'yicha tadqiqotlari hududiy rivojlanishning samarali modeli markazlashgan yagona nazorat emas, balki o'zaro bog'langan bir nechta boshqaruv markazlari orqali amalga oshirilishini ko'rsatadi [12]. Uning nazariyasida mahalliy boshqaruv, o'zini o'zi tashkil etish va resurslardan birgalikda foydalanish mexanizmlari asosiy o'rin tutadi. Bu yondashuv biologik tizimlardagi ko'p darajali boshqaruv tamoyillariga yaqin bo'lib, hujayra ichida markaziy boshqaruv mavjud bo'lishiga qaramay, ko'plab jarayonlar lokal nazorat va teskari aloqa orqali tartibga solinishini eslatadi.

Hududlarni murakkab modda va energiya almashinuvi tizimi sifatida talqin qilishda A. Wolmanning "urban metabolism" konsepsiyasi muhim ilmiy natijalardan biri hisoblanadi [13]. U shaharlardagi resurslar kirimi, ichki harakati va chiqimini metabolik jarayon sifatida izohlab, hududiy rivojlanishni dinamik va o'zaro bog'liq oqimlar tizimi sifatida tushuntiradi. Ushbu yondashuv biologik analogiyalarni hududiy iqtisodiy tahlilga yaqinlashtiradi, chunki hujayrada ham oziqa moddalari, energiya va axborot oqimi hayotiy faoliyatning asosini tashkil etadi. Demak, hududiy tizimni faqat ma'muriy birlik sifatida emas, balki resurslar, axborot va boshqaruv oqimlari birlashgan faol tizim sifatida ko'rish zarur.

OECD tomonidan olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar hududiy rivojlanish samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruv sifati, strategik rejalashtirish, resurslardan foydalanish darajasi va mahalliy institutlar o'rtasidagi hamkorlikka bog'liq ekanini ko'rsatadi [14], [15]. Ushbu hisobotlarda hududlararo tafovutlarni kamaytirish, o'sish nuqtalarini aniqlash, innovatsion salohiyatni kuchaytirish va boshqaruv mexanizmlarini moslashuvchan qilish zarurligi ta'kidlangan. Bu jihatlar biologik tizimlar bilan taqqoslanganda, tirik organizmning sog'lom faoliyati ham barcha

qismlarning muvozanatli rivojlanishi va resurslar oqimining izchilligiga bog‘liq ekanini eslatadi.

Hududiy siyosat va mahalliy boshqaruvning zamonaviy yo‘nalishlari bo‘yicha OECD hujjatlarida institutsional koordinatsiya, dalillarga asoslangan boshqaruv va ko‘p darajali hamkorlik asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi [16], [17]. Bu yondashuvlar hududiy boshqaruvni mexanik buyruqbozlik tizimi sifatida emas, balki moslashuvchan, teskari aloqa asosida ishlovchi va doimiy ravishda o‘zini takomillashtiruvchi tizim sifatida ko‘rishni taklif etadi. Mazkur fikr biologik tizimlarning o‘z-o‘zini tartibga solish va homeostazni saqlash qonuniyatlari bilan mantiqan uyg‘unlashadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot qiyosiy-tahliliy, tizimli, institutsional va evolyutsion yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Qiyosiy-tahliliy usul yordamida hujayra tarkibiy qismlarining vazifalari mahalliy boshqaruv institutlarining funksiyalari bilan solishtirildi. Tizimli yondashuv orqali har ikki obyekt - hujayra va hudud - tashqi muhit bilan aloqada bo‘lgan, ichki elementlari o‘zaro bog‘langan ochiq tizim sifatida ko‘rib chiqildi [4; 10].

Institutsional tahlilda mahalliy rivojlanishni belgilovchi qonunchilik, vakolatlar taqsimoti, hisobdorlik va politsentrik boshqaruv mexanizmlari o‘rganildi [1],[2], [3], [11], [12]. Evolyutsion yondashuv esa endosimbioz, ko‘phujayralilik va funksional differentsiatsiya tushunchalarini hududiy rivojlanishda tashqi resurslarni o‘zlashtirish, maxsuslashuv va institutlar shakllanishi bilan qiyoslash imkonini berdi [5], [7], [8], [9].

Tadqiqotda mazmun tahlili va konseptual modellashtirish usullaridan ham foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar, biologiya va boshqaruv sohasidagi ilmiy adabiyotlar, shuningdek OECDning tahliliy materiallari asosida mahalliy boshqaruvning “hujayraviy modeli” shakllantirildi [14],[15],[16],[17].

TAHLIL VA NATIJALAR

Eukariot hujayrada vazifalarning organellalar o‘rtasida ajratilishi uning yashovchanligi va samaradorligini ta‘minlaydi. Yadro axborot va nazorat markazi bo‘lsa, mitoxondriya energiya ishlab chiqaradi, membrana tashqi muhit bilan tanlab aloqa qiladi, sitoskelet esa shakl va harakatni ta‘minlaydi. Hududiy iqtisodiy tizimda ham shunga o‘xshash funksional taqsimot mavjud: mahalliy kengash va hokim strategik rahbarlikni amalga oshiradi, tadbirkorlik va soliq bazasi iqtisodiy “energiya” hosil qiladi, regulyator muhit tashqaridan kiruvchi resurslarni saralaydi, infratuzilma esa harakat va barqarorlikni ta‘minlaydi [1],[2],[3],[4], [14],[15],[16],[17].


Kollektiv hujayra migratsiyasida lider hujayralar yo‘nalish beradi, follover hujayralar esa umumiy harakat samaradorligini ta‘minlaydi. Bu jarayon signal almashinuvi, ichki tuzilma va hujayralararo muvofiqlashuvga tayanadi [6]; [9]. Mahalliy boshqaruvda ham rivojlanishning “harakatlanishi” uchun strategik yetakchilik, institutlar o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi va resurslar oqimini muvofiqlashtirish talab etiladi. Aks holda, kuchli resurs bazasi mavjud bo‘lsa ham,

hududiy loyihalar kechikadi, infratuzilma parokanda rivojlanadi va iqtisodiy natijalar susayadi [14],[15],[16],[17].

1-jadval.

Hujayra elementlari va mahalliy boshqaruvning funksional analoglari¹

Hujayra elementi	Biologik vazifa	Mahalliy boshqaruvdagi analogi
DNK / genetik kod	Rivojlanish dasturini belgilaydi	Hududiy strategiya, dastur va maqsadli indikatorlar
Yadro	Boshqaruv va muvofiqlashtirish markazi	Mahalliy kengash va hokimning strategik rahbarligi
Membrana	Tashqi muhit bilan tanlab aloqa qiladi	Regulyator muhit, ruxsat berish, investitsiya kirishi va chiqishi
Mitoxondriya	Energiya ishlab chiqaradi	Tadbirkorlik, soliq bazasi, mahalliy iqtisodiy faollik
EPT va Golji apparati	Qayta ishlash, saralash, yetkazish	Ma'muriy apparat, tarmoq boshqarmalari, loyihalar ijrosi
Lizosoma	Nuqson va chiqindilarni bartaraf etadi	Audit, monitoring, nazorat, korrupsiyaga qarshi mexanizmlar
Sitoskelet	Shakl, barqarorlik va harakat	Transport, kommunikatsiya va raqamli infratuzilma
Hujayralararo fazo	Integratsiya va signal muhiti	Mahalla, jamoa, biznes muhiti va ijtimoiy kapital



1-rasm. Mahalliy boshqaruvning “hujayraviy modeli”²

Endosimbioz g‘oyasi hududiy rivojlanishni tushuntirishda ham samarali konseptual vosita bo‘la oladi. Hudud tashqi investitsiya, texnologiya, boshqaruv amaliyoti yoki raqamli yechimni shunchaki qabul qilmaydi; uni o‘z institutlari, qoidalari va mahalliy ehtiyojlariga moslashtirgandagina yangi sifat hosil bo‘ladi. Shunday qilib, tashqi resurslarni ichki tizimga mos holda integratsiya qilish mahalliy iqtisodiy tizimning “energetik quvvati”ni kuchaytiradi [5], [11], [14], [17].

Ko‘phujayralilik esa mehnat taqsimoti, signallashuv va fazoviy tashkil etish rivojlanganida barqaror tizim shakllanishini ko‘rsatadi [7], [8], [9]. Hududlar rivojlanishida bu maxsuslashgan institutlar, tarmoq klasterlari, ta’lim va innovatsiya subyektlari, mahalla va biznes o‘rtasidagi uzviy hamkorlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Nort ta’kidlaganidek, bunday rivojlanish yo‘li institutlar yaratgan rag‘batlar va tarixiy bog‘liqlik bilan belgilanadi [11]. Ostromning politsentrik boshqaruv

¹ Jadval muallif tomonidan [1], [2], [3], [4], [5], [14], [15], [16], [17]. manbalar asosida ishlab chiqilgan.

² Muallif ishlanmasi

konsepsiyasi esa hududiy rivojlanishning yagona markaz emas, balki bir-biriga bogʻlangan bir nechta institutlar faoliyati orqali taʼminlanishini asoslaydi [12].

Shu nuqtayi nazardan, mahalliy boshqaruvning “hujayraviy modeli” quyidagi indikatorlar tizimini ishlab chiqishga asos boʻlishi mumkin: “mitoxondrial quvvat” - tadbirkorlik, soliq tushumlari, eksport va investitsiya jalb qilish salohiyati; “membrana oʻtkazuvchanligi” - litsenziyalash, yer ajratish, ruxsat berish jarayonlarining shaffofligi va tezligi; “signal uzatish tezligi” - qaror qabul qilish va ijro muddati; “lizosomal tozalash qobiliyati” - audit, monitoring va korrupsiya xavflarini pasaytirish samaradorligi; “sitoskelet barqarorligi” - transport, muhandislik va raqamli infratuzilmaning holati.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari hujayra tizimi va hududiy iqtisodiy rivojlanish oʻrtasidagi oʻxshashliklar tasodifiy emasligini, balki ular umumiy tizimli qonuniyatlarga asoslanishini koʻrsatdi. Hujayra faoliyatida barqarorlik va samaradorlik funksional taqsimot, ichki muvofiqlashuv va uzluksiz nazorat orqali taʼminlanganidek, hududiy boshqaruvda ham natijadorlik aynan shu omillarga bogʻliq.

Qiyosiy tahlil shuni koʻrsatdiki, hududiy rivojlanish jarayonlarida asosiy muammo resurslar yetishmasligidan koʻra, ularning tizimli boshqarilmasligi bilan bogʻliq. Yaʼni, strategik qarorlar, iqtisodiy faollik, infratuzilma va nazorat mexanizmlari oʻrtasidagi uzviylik yetarli darajada taʼminlanmagan holatlarda rivojlanish surʼatlari pasayadi. Shu sababli hududiy boshqaruvni alohida elementlar yigʻindisi sifatida emas, balki yagona funksional tizim sifatida koʻrish zarur.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan “hujayraviy model” mahalliy boshqaruvni baholash va takomillashtirish uchun konseptual asos boʻlib xizmat qiladi. Ushbu model orqali hududiy rivojlanish koʻrsatkichlarini tizimlashtirish, boshqaruvdagi zaif boʻgʻinlarni aniqlash va resurslar taqsimotini optimallashtirish imkoniyati yaratiladi. Modelning asosiy ustunligi shundaki, u iqtisodiy, institutsional va infratuzilmaviy jarayonlarni oʻzaro bogʻliq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi amaliy yoʻnalishlar muhim deb hisoblanadi. Avvalo, hududiy rivojlanishni baholashda anʼanaviy statistik koʻrsatkichlar bilan bir qatorda tizimli indikatorlar joriy etilishi lozim. Bunda iqtisodiy faollik, boshqaruv tezkorligi, ruxsat berish jarayonlari, nazorat samaradorligi va infratuzilma holatini oʻzaro bogʻliq holda baholash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Keyingi muhim yoʻnalish boshqaruv subyektlari oʻrtasidagi muvofiqlashuvni kuchaytirish bilan bogʻliq. Mahalliy kengashlar, ijro etuvchi organlar, biznes va jamoatchilik institutlari oʻrtasida samarali axborot almashinuvi yoʻlga qoʻyilishi hududiy loyihalarning sifatli amalga oshirilishini taʼminlaydi. Bu jarayonda qaror qabul qilish tezligi va ijro intizomi alohida ahamiyatga ega.

Tashqi resurslarni jalb qilishda ularni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim hisoblanadi. Investitsiya, texnologiya va innovatsiyalar hududning mavjud institutsional va iqtisodiy tuzilmasiga integratsiyalashgandagina kutilgan natijani beradi. Aks holda ular alohida element sifatida qolib, tizimli taʼsir koʻrsata olmaydi.

Biosistemali yondashuv hududiy rivojlanishni boshqarishda yangi metodologik imkoniyatlarni ochib beradi. Ushbu yondashuv asosida shakllantirilgan model mahalliy boshqaruv samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanishni yaxshilash va hududlar oʻrtasidagi rivojlanish tafovutlarini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Kelgusida mazkur modelni amaliy sinovdan oʻtkazish, indikatorlar tizimini chuqurlashtirish va hududlar kesimida taqqoslama tahlillarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. Oʻzbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabr ., № 913-XII “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-112170>
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyun PF-98-son “Oʻzbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-7594283>
4. Cooper G.M. The Cell: A Molecular Approach. 2nd ed. Sunderland (MA): Sinauer Associates, 2000.
5. Archibald J.M. Endosymbiosis and Eukaryotic Cell Evolution // Current Biology. 2015. Vol. 25, No. 19. P. R911-R921. DOI: 10.1016/j.cub.2015.07.055.
6. Mayor R., Etienne-Manneville S. The Front and Rear of Collective Cell Migration // Nature Reviews Molecular Cell Biology. 2016. Vol. 17, No. 2. P. 97-109. DOI: 10.1038/nrm.2015.14.
7. Brunet T., King N. The Origin of Animal Multicellularity and Cell Differentiation // Developmental Cell. 2017. Vol. 43, No. 2. P. 124-140. DOI: 10.1016/j.devcel.2017.09.016.
8. Niklas K.J., Newman S.A. The Many Roads to and from Multicellularity // Journal of Experimental Botany. 2020. Vol. 71, No. 11. P. 3247-3253. DOI: 10.1093/jxb/erz547.
9. Bich L., Pradeu T., Moreau J.-F. Understanding Multicellularity: The Functional Organization of the Intercellular Space // Frontiers in Physiology. 2019. Vol. 10. Art. 1170. DOI: 10.3389/fphys.2019.01170.
10. Drack M., Pouvreau D. On the History of Ludwig von Bertalanffy’s “General Systemology”, and on its Relationship to Cybernetics - Part III: Convergences and Divergences // International Journal of General Systems. 2015. Vol. 44, No. 5. P. 523-571. DOI: 10.1080/03081079.2014.1000642.
11. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. DOI: 10.1017/CBO9780511808678.
12. Ostrom E. Beyond Markets and States: Polycentric Governance of Complex Economic Systems // American Economic Review. 2010. Vol. 100, No. 3. P. 641-672. DOI: 10.1257/aer.100.3.641.
13. Wolman A. The Metabolism of Cities // Scientific American. 1965. Vol. 213, No. 3. P. 179-190. DOI: 10.1038/scientificamerican0965-178.

14. OECD. Local Governance and the Drivers of Growth. Paris: OECD Publishing, 2005. DOI: 10.1787/9789264013308-en.
15. OECD. Governing Regional Development Policy: The Use of Performance Indicators. Paris: OECD Publishing, 2009. DOI: 10.1787/9789264056299-en.
16. OECD. Regional Governance in OECD Countries: Trends, Typology and Tools. Paris: OECD Publishing, 2022. DOI: 10.1787/4d7c6483-en.
17. OECD. Place-Based Policies for the Future. Paris: OECD Publishing, 2025. DOI: 10.1787/e5ff6716-en.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**